

## **TURK TILIDA XARAKTERNI BILDIRUVCHI ZOOFRAZEOLOGIZMLAR SEMANTIKASI**

**Salimova Zebo Rustam qizi**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Turk filologiyasi”

kafedrası o’qituvchisi

Tel: +998 90 811-26-87

E-pochta: [zebosalimova1990@gmail.com](mailto:zebosalimova1990@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu ilmiy maqola turkiy tilda inson qiyofasini ifodalashda zoonimlarning qo’llanilishiga bag’ishlangan. Ijobiy va salbiy xususiyatlarni tavsiflash uchun ishlatiladigan lug’at birliklari tahlil qilinadi. Zoonimlar orqali shaxs qiyofasini ifodalashda lingvistik imkoniyatlarning kengligi ko’rib chiqiladi. Turkiy tilda tilning so’z boyligi va boshqa tilda qanday ifodalanishiga urg’u beriladi.*

**Kalit so’zlar:** Til, inson qiyofasi, xarakter, zoonim, obraz, portret, ijobiy, salbiy, ko’rinish, o’xshatish, obraz, muqobil, ekvivalent, til sohasi, ma’no ko’chirish, metafora.

### **АННОТАЦИЯ**

*Эта научная статья посвящена использованию зоонимов в выражении человеческого образа на турецком языке. Анализируются словарные единицы, используемые для описания положительных и отрицательных черт. Рассмотрена широта языковых возможностей в выражении образа человека через зоонимы. В турецком языке акцент делается на словарном запасе языка и способах его выражения на другом языке.*

**Ключевые слова:** Язык, человеческий образ, персонаж, зооним, образ, портрет, позитив, негатив, внешний вид, аналогия, образ, альтернатива, эквивалент, языковая область, передача значения, метафора.

### **ABSTRACT**

*This scientific article is devoted to the use of zoonyms in the expression of the human image in Turkish. The word units used to express positive and negative traits are analyzed. The breadth of language possibilities is considered in the expression of the human image through zoonyms. In Turkish, the emphasis is on the vocabulary of the language and the ways in which it is expressed in another language.*

***Keywords:** Language, human image, character, zoonym, image, portrait, positive, negative, appearance, analogy, image, alternative, equivalent, scope of language, transfer of meaning, metaphor.*

## **KIRISH**

Tillar, adabiyotlar, madaniyatlar o‘zaro muloqotga kirishganda biri ikkinchisining rivojiga, boyishiga xizmat qiladi. Tillararo, madaniyatlararo, adabiyotlararo o‘zaro ta’sir tarjimachilik sohasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bugungi kundagi kuchayib borayotgan globalashuv, integratsiyalashuv jarayonlari o‘zbek tarjimonlari oldiga muhim vazifalarni qo‘ymoqda.

Olamda hamma narsa bir-biriga bog‘liq yaratilganidek, Insoniyat ham tabiat bilan chambarchas yashaydi. Kishining xatti-harakatlari, xarakteri va tashqi ko‘rinishini hayvon yoki o‘simlik nomlari bilan atash yoki o‘xshatish buning yaqqol isbotidir. Tarixdan hozirgi kunga qadar yomon xulqli odamlar yovvoyi yirtqich hayvonlarga, yaxshi fazilatli insonlar uy hayvonlariga, sezgir, harakatchanlar ba’zi qushlarga o‘xshatilishi an’anaga aylanib qolgan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Frazeologik birliklar ifodalanishi va tuzilishiga ko‘ra turli guruh va bo‘limlarga ajratib o‘rganiladi. Frazeologizmlar tarkibida turli komponentlar, xususan, somatik so‘zlar, o‘simliklar, gullar, tabiat hodisalari, hayvon nomlari va h.k. ishtirok etadi. Zookomponentli frazeologik birliklar nutqda faolligi jihatidan somatik frazeologizmlardan keyingi o‘rinda keladi. Zookomponentli frazeologik birliklar inson va hayvonlarning uzoq ming yillik munosabatlari natijasida rivojlangan. Bugungi kunda ham inson faoliyatining aksariyat sohalari, xususan, qishloq xo‘jaligi, sanoat, sport, ilm va h.k. hayvonlar bilan bog‘liqdir. Inson – hayvonot dunyosi munosabati tilga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan bo‘lib, tilning leksik fondidagi zoonim komponentli iboralar guruhi shakllantirgan. Zoonim komponentli iboralar antroposentrik xususiyat bilan xarakterlanadi. Zoofrazeologizmlar tarkibida it, mushuk, qo‘y, ot, ho‘kiz, sigir, echki, tuya, tovuq kabi uy hayvonlari; tulki, quyon, yo‘lbars, ayiq, bo‘ri, sher, to‘ng‘iz singari yovvoyi hayvonlar; ilon, toshbaqa kabi sudralib yuruvchilar; sichqon, olmaxon singari kemiruvchilar; qushlar; suvda yashovchilar; hamda hasharot nomlarini bildiruvchi zoonimlar ishtirok etadi. Zookomponentli frazeologik birliklar ma‘nosi bilan tarkibidagi so‘zlarining ma‘nolari orasidagi munosabatga ko‘ra frazeologik chatishmalar va frazeologik butunlikka ajratiladi. Frazeologik chatishmalarining umumiy ma‘nosi ularni tashkil qilgan

komponent soʻzlar maʼnosiga umuman mos kelmaydi. Frazeologik butunlikning maʼnosi tarkibidagi soʻzlarining maʼnosi asosida izohlanadi.

Zoofrazeologizmlar tarkibida uy hayvonlari: it, mushuk, qoʻy, ot, hoʻkiz, sigir, echki, tuya, tovuq; yovvoyi hayvonlar: tulki, quyon, yoʻlbars, ayiq, boʻri, sher, toʻngʻiz; sudralib yuruvchilar: ilon, toshbaqa; kemiruvchilar: sichqon, olmaxon; qushlar: chumchuq, qargʻa, bulbul, bedana, mayna, gʻoz, oʻrdak, tovus; suvda yashovchilar: baliq, qurbaqa; hasharotlar: pashsha, chivin, bit, burga, ari va h.k. zoonimlar ishtirok etadi. Turkiy tillardagi “zookomponentli frazeologik birliklar jismoniy sifat, tashqi koʻrinish, xarakter belgilari, intellekt, inson faoliyati kabilarni aks ettiradi”. Ot, tuya, qoʻy, mushuk, it, sigir kabi hayvonlarning xonakilashtirilishi turkiy xalqlar leksikasida ijobiy maʼno belgilarini oʻzida aks ettiruvchi frazeologik birliklarning ifoda va mazmun jihatidan boyishida yanada muhim bir omil boʻldi. Turk va oʻzbek tillaridagi zoonim komponentli iboralarning semantik guruhleri Turk va oʻzbek tillaridagi zoonim komponentli iboralarni semantik jihatdan uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga shakl va mazmun jihatidan toʻliq muqobil iboralar kiradi. Mazkur guruhdagi frazeologik birliklar turk va oʻzbek lingvomadaniyatida bir xil vaziyatlarda qoʻllaniladi. Bunday iboralarda milliy kolorit farqlari kuzatilmagani uchun ham ularni tarjima qilish qiyinchilik tugʻdirmaydi. Zero, ularning aksariyati ayni manbadan oʻsib chiqqan boʻladi. Bu oʻrinda S.Vlaxov va S.Florinlar taʼkidlaganidek, ikki qiyoslanilayotgan tildagi frazeologizmlarda toʻliq ekvivalentlik namoyon boʻladi<sup>1</sup>

Turkcha iboralar oʻzbekcha birliklar bilan taqqoslaganda “deve yapmak”- birovning pulini, molini oʻzlashtirmoq, yaʼni “tuya koʻrdinmi- yoʻq”; “deveyi havutuyla yutmak” tuyani yutib, dumini koʻrsatmoq har qanday katta (koʻp) narsani ham oʻzlashtirib, undan nishon, iz qoldirmaslik; “kuş uykusu”- qush uyqusi biz zumlik uyqu, “tavşan yürekli” -quyon yurak oʻta qoʻrqoq, jurʼatsiz, “sağmal inek”- sogʻin sigir, maʼlum miqdordagi mablagʻ bilan muntazam taʼminlab turadigan manba, “arının yuvasına (inine) çomak sokmak”- arining inini toʻzitmoq, xavfli odamni gij-gijlab oʻziga hujum qilishiga yoʻl qoʻymoq, “sıçan deliği bin altın”- sichqonning ini ming tanga boʻldi, qochib qutulgan joy topolmay qolmoq kabi oʻxshash va aynan mos keluvchi iboralar koʻpdir. Bu esa oʻzbek va turk tillarining oʻzaro yaqin tillardan kelib chiqqanligi asosidadir. Zookomponentli frazeologik birliklar obyektlari

<sup>1</sup> 2 Turkcha-oʻzbekcha zookomponentli toʻliq muqobil frazeologik birliklar: 1 Сакаева Л.Р. Сопоставительный анализ фразеологических единиц антропоцентрической направленности (на материале русского, английского, таджикского и татарского языков). Автореф... докт. филол. наук. –Уфа, 2009. –С. 11. 5 Исmoilov F. Зоокомпонентли фразеологик birliklarнинг этномаданий хусусиятлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. №7. –Тошкент: 2013. -В. 98.3. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. -М., 2005. –С.184.

bo‘lmish timsollarning bu tariqa o‘zaro mosligi tillarda muqoyasaviy umumiylikning mavjudligidan dalolat beradi. Binobarin, badiiy muqoyasa asosida hosil bo‘lgan turk va o‘zbek tillari frazeologik birliklariga nazar tashlar ekanmiz, ularning ko‘pchiligi muqoyasa obyektlarining o‘xshashligiga guvoh bo‘lamiz: Biz konusurken, shube muduru keyifli keyifli guluyor: - Bulbul gibi soyluyor Fransuzcayi mashallah. Bir Turk kizi için sayani takdir dogrusu, diyordu (Reşat Nuri Güntekin. Çalıkuşu, 138). Tarjimasi: “Biz so‘zlashib turganimizda bo‘lim mudiri nash’a qilib kulardi. - Fransuzchani bulbulday sayraydi-ya, yo olloh! Turk qizi uchun maqtovga sazovor bir fazilat, - deyardi” (M.Ismoilij tarjimasi. Choliqushi, 138). Yoki: “Deminden beri yukarida talebelerimin vazifelerini tashih ediyordum. Kapı çalındı, Munise aşğıdan: - Abacığım, misafir geldi, diye seslendi. Taşlıkta siyah çarşafli bir hanım geziniyor; yuzü kapalı olduğı için tanımadım, tereddütte: - Kimsiniz efendim? diye sordum. Birdenbire ince bir kahkaha koptu; hanım, kedi gibi boynuma sıçradı. Meğerse Munise imiş” (Reşat Nuri Güntekin. Çalıkuşu, 286-287). Tarjimasi: “Uyda o‘tirib o‘quvchilarimning daftarlarini ko‘rayotgan edim. Eshik taqilladi. Munisa pastdan: - Opajon, mehmon keldi, - deb qichqirdi. Tashqarida qora chorshafli bir xotin aylanib yurardi. Yuzi yopiq bo‘lgani uchun taniyolmadim. Taraddudlanib: - Kimsiz, afandim? – deb so‘radim. Birdan kulgi ko‘tarildi. Xonim mushuk singari bo‘ynimga tashlandi. Tavba, Munisa ekan! Yaramas qiz meni belimdan ushlab hovlida aylantira boshladi. Hech qo‘ymay yuzimni, bo‘ynimni o‘pa ketdi. Chorshaf kichkinamni bo‘yiga yetgan qizga o‘xshatib qo‘yibdi” (M.Ismoilij tarjimasi. Choliqushi, 294). Frazeologik birliklarni tarjima qilishda ular asosida mujassamlashgan obrazning barhayot yoki siyqaligini oydinlashtirishning ham tarjima tilida asl nusxadagi lisoniy birliklarga mazmun va uslub jihatlaridan mos til vositalarini tanlashda ahamiyati katta 9 . Har ikki tilda ham “takrorlamoq, qaytarmoq, bir gapni hadeb aytavermoq” ma’nosini ifodalash uchun to‘tiday o‘xshatish etalonidan keng foydalaniladi: Babam, ağızı alısmış, her sözün başında -Ulan, Ulan be..., -Vay anasımı! diye konuşur. Yani dili biraz argoya kaçır. Fatoşda, kimden ne duyarsa papağan gibi tekrarlıyor, ne görürse öyle yapıyor, Fatoş'un babamı taklit ederek peltek peltek -Ulan be... -Vay anasımı! gibisözler söylemesine bizim evde herkes bayılıyor<sup>2</sup> Tarjimasi: Dadamning qiziq odati bor – har ikki gapning birida “ho‘v”, “voy zang‘aryey!” degan bo‘lmag‘ur so‘zlarni ishlatib turadi. Fatoş bo‘lsa naq to‘tining o‘zi, kimdan nimani eshitsa, darrov shuni qaytaradi. U “ho‘v falonchi”, “voy zang‘aryey!” deb chuldirib qolsa,

<sup>2</sup> Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika, 74. 9 Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. –Тошкент: Фан, 2005. –Б. 184.

uydagilar o‘zlarida yo‘q suyunib ketishadi (M. Hakimov tarjimai. G‘aroyib bolalar,157).

### **XULOSA**

Mazkur tillar tarkibidagi zoonimlarning “xulq-atvori” tahlili bizga quyidagilarni aytishga imkon beradi:

Ko‘rib chiqilgan zooleksemalar har ikkala tilning matnlarida faol ishlatiladi va turli xil insoniy illatlarning timsoli sifatida xizmat qiladi;

Ikkala tilning zoonimlari odamning fe‘l-atvorini, holatini, xatti-harakatlarini va xulq-atvorini salbiy ham ijobiy baholash uchun ishlatiladi, bu hayvonot dunyosi vakili idrokining o‘ziga xosligi bilan izohlanadi, bunda xuddi shu hayvon o‘xshash belgilar bilan tavsiflanadi.

### **REFERENCES**

1. Исмоилов Ғ. Зоокомпонентли фразеологик бирликларнинг этномаданий хусусиятлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. №7. –Тошкент: 2013.
2. Шабанов Ж., Ҳамидов Х. Уй ҳайвонлари номига асосланган мақол ва ибораларнинг таржимада берилиши // Таржима масалалари. № 2. –Тошкент: ТошДШИ, 2014.
3. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.
4. Jumanazarova G.U. «Shirin bilan Shakar» dostonining lug‘aviy va lingvopoetik xususiyatlari (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varinti asosida):Filol. fan. nomz. ...dis. avtoref. – T., 2008. -26 b.
5. Zohidov T.Z. Zoologiya ensiklopediyasi. Qushlar. – Toshkent, 1957.
6. Ibrat. «Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ijodining ma’naviy qadriyatlarini yuksaltirishdagi o‘rni va ahamiyati» ilmiy-amaliy anjumanining materiallari. – Samarqand: SamDU nashri, 2006. – 84 b.

Internet saytlari

1. <http://www.ziyonet.com>
2. <http://tdk.gov.tr>
3. <http://kitob.uz>
4. <http://www.biblus.ru>